

Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



2019 yilning yanvar-may oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish


RAQAMLAR	
3282,9 mlrd.so'm Sanoat ishlab chiqarish hajmi	110,1 % sanoat ishlab chiqarish indeksi
2027,9 mlrd.so'm Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi	125,2 % o'sish sur'ati
61,8 % Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi	30,5 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi





Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3282,9 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 110,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 8,6 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 9,8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 15,6 % ni, elektr, gaz, bug' bilan taminlash va havoni konditsiyalash – 12,6 % ni tashkil qildi.

2019 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



2018 yilning yanvar-may oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,01 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0025 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3119,4 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 95,0 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 45,5 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 22,5 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 19,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 45,5 %



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 22,5 %



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 19,9 %

Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdag'i sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-may</i>	<i>2018 yil yanvar-may</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		143,3	70,6
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		72,1	48,3
Engil avtomobillar		18618	11626
Yuk avtomobilari – dona		3171	3145
Aroq – ming litr		395	598,6
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		10,7	9,2
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr		500,0	580,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		33118,5	31833,6
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

Mahsulot turlari		2019 yil yanvar-may	2018 yil yanvar-may
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		693,4	559,4
Milliy non (yopgan non) – tonna		265,9	71,4
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		9778,8	11502,6
Xo'jaliksovuni – tonna		3819,0	4855,0
Paxta tolasi –tonna		36323,4	44576,0
Paxta chigititonna		57373,4	69103,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Aroq 203,6 ming litrga;
2. Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari 80 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Paxta tolasi 8252,6 tonnaga;
5. Paxta chigiti 11729,6 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-may oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 143,2 mldr.somni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,4 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 112,6 % ni tashkil etdi.

Suv kanalizatsiya utilizatsiya tomonidan mahsulotlar hajmi 20,2 mldr.somni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-may oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 71,2 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 28,5 % ni tashkil etdi.




2019 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 45,1 foiz, Urganch shahri 21,0 foiz, Xonqa 7,7 foiz, Shovot 5,2 foiz, Bog'ot 4,7 foiz va Gurlan tumani 3,4 foizni va eng past bo'lgan Yangibozor tumani 2,0 foiz, Xiva tumani 2,0 foiz hamda 1,3 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

2018 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)




2019 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)

Iqtisodiy faoliyat turlari	<i>2019 yil yanvar-may</i>	<i>2018 yil yanvar-may</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	3282,9	2182,1
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	0,1	0,1
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	0,1
Qayta ishlash faoliyati	3119,4	2085,6
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	573,9	394,8
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	81,9	66,4
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	722,4	559,0
Kiyim ishlab chiqarish	11,5	21,7
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	3,7	2,6
Yog'och va po'kak buyumlar, pohol va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	2,2	1,7
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	6,6	6,0
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,3	0,3
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,03
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	6,2	4,4
Asosiy farmasevtika	3,2	2,5
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	18,1	16,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	128,5	72,8
Metallurgiya sanoati	7,7	4,8
Mashina va uskunalaridan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	48,0	47,0
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,04	0,04
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	9,4	9,8
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	86,0	64,9


Iqtisodiy faoliyat turlari	2019 yil yanvar-may	2018 yil yanvar-may
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1342,6	750,4
Mebel ishlab chiqarish	13,4	8,1
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	45,7	46,0
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	8,0	5,8
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	143,2	79,3
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	20,2	17,1

Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-may oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.




Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-may oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-may oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 38,0 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-may oylarida bu ko'rsatkich 44,0 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 6,7 foizdan 6,4 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 50,7 foizdan 44,5 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 3,3 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-may oylarida 2,6 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1444,2 mlrd.so'mlik (829,6 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 210,4 mlrd.so'mlik (146,7 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 1461,6 mlrd.so'mlik (1106,7 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

2019 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




2018 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boyicha 1785,9 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 108,3 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-may oylarida Xazorasp tumani 3525,3 ming so'mdan 2019 yil yanvar-may oylarida 6074,2 ming so'mga, Urganch shahri 3819,8 ming so'mdan 4869,3 ming so'mga, Xonqa tumani 986,7 ming so'mdan 1373,8 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


2019 yil yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2027,9 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 125,2 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 484,0 mlrd.so'mni va 1543,9 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-may oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 105,5 foiz va 132,9 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 61,8 foizni (*2018 yil yanvar-may oylarida 74,3 foiz*) tashkil qildi.


2019 yil yanvar-may oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)



2019 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)



**2019 yil yanvar-may oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga
iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)**



2019 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1103,1 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 123,1 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdakি, 2018 yil yanvar-may oylarida Xazorasp tumani 3608,1 ming so'mdan 2019 yil yanvar-may oylarida 5035,8 ming so'mga, Urganch shahri 2295,4 ming so'mdan 2383,5 ming so'mga, Urganch tumani 337,2 ming so'mdan 366,4 ming so'mga, Bo'got tumani 285,0 ming so'mdan 299,1 ming so'mga o'sgani kuzatildi.